

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№5

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar

bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o’g’li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o’g’li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

MUNDARIJA

Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budjet daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебутова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижи модели учун барқарорлик таҳлили	19
Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
Abduqayumov Elyorbek Ulug’bek o’g’li, Yo’ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o’rni va ta’siri	33
Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g’li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellashtirish	46
Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o‘g‘li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rni	80
Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o‘g‘li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish	111
Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni	150
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165
Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li	Raqamli texnologiyalar asosida budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg‘ona viloyati misolida	179
Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O’zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	Обеспечение надежности аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов	200
To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li	Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari	209
Djumaniyazov Shavkat Raximovich	Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	216
Siroj Zarina Rustambekovna	O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring tizimini takomillashtirish	223
To‘laev Safarmurod Boymuhammad o‘g‘li	Korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi	229

Эрдонаев Аликул Халимович	Банк технологиялари ва масофавий банк хизматларининг турларидан фойдаланиш амалиёти	236
Муродов Бобиржон Ҳаётжон ўғли	Иқтисодиётда яширин меҳнат ресурслари айланмаси: иш берувчиларни масъулияти ва норасмий бандликни бартараф этишнинг тизимли ечимлари	247
Abdullayeva Shaxnoza Erkinovna	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish	253
Саттаров Тулкин Абдихалилович	Қишлоқ хўжалиги корхоналарини молиявий барқарорлигини баҳолаш моделлари	261
Sanayev Javohir Shavkat o’g’li	Tijorat banklarida mijozning tranzaksion faolligiga asoslangan adaptiv tariflash mexanizmini takomillashtirish	271
Хасанов Сабирджан Садикович, Раимова Мадинабону Сабирджан кизи	Оценка экономической необходимости строительства ветроэнергетических установок в Узбекистане	278
Karimov Shohruh Ahmadullo o’g’li	O’zbekistonda buxgalteriya xizmatlari bozorining institutsional tuzilmasi: auditorlik va soliq maslahatchilari tashkilotlari reestrlari tahlili	286
Karimqulov Jasur Imomboyevich, Xojanov Baxadir Omirbayevich	Bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini integral baholash metodikasini takomillashtirish	292
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	O‘zbekiston bank tizimining miqdoriy kengayishi va moliyaviy barqarorlik normativlariga rioya etish darajasi: 2017–2025 yillar tahlili	301
Олимова Қизлархон Тўра қизи	Тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва мониторинг тизимида мавжуд муаммоларнинг тизимли ечими	308
Xolmurotov Fozil Saribayevich	Hududiy eksportning qo'shilgan qiymati va diversifikatsiya darajasini o'lchash: Xorazm viloyatida export quality index tahlili	314
Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etish, tannarxni kalkulyatsiya qilish va tahlil etish bo‘yicha xorijiy tajriba	327
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini prognozlashning ekonometrik asoslari	333
Kabilova Zebo Babakulovna	Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	341
O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li	Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv modellarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash	353
Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich	Hududlarda investitsiyalar samaradorligini qisqa panel ma’lumotlari asosida o‘rta muddatga prognozlash: Toshkent viloyati misolida	358
Akhmedova Shokhistakhon	Ways to improve sustainable financing mechanisms in Uzbekistan: capital needs, pilot instruments and scenario-based projections to 2030	368
Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li	Moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdolarni moliyalashtirish	381
Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi	Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik baholash usullari va mezonlari	388
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Sharapova Mashxura Azadovna	O‘zbekistonda monetar va fiskal siyosatning inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishga ta’siri	399
Гозиев Рзоиддин Чулпон угли, Ким Дмитрий Игнатьевич	Перестройка кадровой стратегии ритейла в эпоху цифровых технологий	406
Qodirov Humoyun Tolibjon o‘g‘li	To‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini boshqarishda eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasi	413
Abdujaborova Mahmura Toshmuxamadovna	Korxona moliyaviy holatining tizimli tahlili	419
Olimova Maftuna Komil qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar bozori talab va taklifi nomutanosibligini statistik baholash	429
Маматова Эленур Рўзимурод қизи	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини кредитлаш механизмини такомиллаштиришнинг илмий-услубий асослари	441
Xodjaniyazov Shohruh Yuldashevich	Hududiy farovonlik indeksini prognozlash: Holt modeli va qiyosiy ekonometrik baholash	450
Maxmasaidova Muslima Ubaydulla qizi	Ko‘p o’zgaruvchili regressiya modeli asosida iqtisodiy ko‘rsatgichlarning o‘zaro bog‘liqligini excel dasturi yordamida tahlil qilish	458
Юсупов А.Т.	Илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик тизимида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (методологик, услубий ва амалий жиҳатлари)	470

Shirinov Uchqun Abduxalilovich	Ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish	481
Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна	Институционально-регуляторные условия формирования цифровой модели оценки кредитоспособности заёмщиков	489
Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar moliyaviy barqarorligini integral baholashning ikki blokli modeli (Entropiya vaznlari asosida)	496
Fayazov Xasan Jaxongir ugli	Behavioral and psychological factors in ai use among 15-year-old students: learning and academic performance	504
Urazbayeva Ilmira Konisbayevna	Moliyaviy kontrolling tizimida mavjud muammolar va ularning aksiyadorlik jamiyati moliyaviy samaradorligiga ta’siri	511
Ollokulova Feruza Mansurovna	Milliy iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari	518
Isamitdinova Ra'no Rahimjanovna, Togayev Salim Sobirovich	Investitsiya loyihalari qiymati va muddati monitoringini o'zlashtirilgan qiymat usuli asosida takomillashtirish	525
Alijonov Jamshid Alijon o‘g‘li	Qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	533
Jafarova Marjona Jafarovna, Xusanova Dilorom Shavkatovna	O’zbekistonda inflatsiya darajasining pasayish sabablari	539
Axmedova Mavluda Shavkatovna	Tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va samarasizlikni ajratib baholovchi panel modellar tizimi	544
Baxromov Azizbek Alisher o‘g‘li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari	551
Гулямова Асия Нурутдиновна	Рынок рассрочки (BNPL) и розничное кредитование в Узбекистане: рост, скрытая стоимость и риски закредитованности	557
Adhamova Gulshoda Yaxyo qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida rahbarlik uslublarining jamoa samaradorligi va loyiha muvaffaqiyatiga ta’sirini baholash	563
Eshmurodov Sulton Suvonqulovich	Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining aktiv va passivlarini muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish yo‘llari	570
Alikulov Azamat Tuygunovich	O‘zbekistonda sukuk bozorini shakllanishida malayziya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari	580
Madaminov G‘ayrat Madiyarovich	Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishning xizmat samaradorligi va kadrlar barqarorligiga ta’sirini ekonometrik baholash	587
Абдуллаева Шахло Рустамовна	Цифровая трансформация бизнес-процессов как фактор повышения эффективности предприятий	593
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	Денежные переводы трудовых мигрантов как фактор макроэкономической устойчивости Республики Узбекистан: возможности и риски	601
Азимова Феруза Маликовна	Технологическое развитие регионов Узбекистана и факторы его дифференциации	607
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekiston sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	616
Azizova Zilola Lochinovna	Budjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish	626
Городилова Мария Владимировна	Цифровизация в энергетической отрасли: потенциал и инновационные тренды развития, влияние на экономику	635
Abdusalimov Lazizbek Otabek o‘g‘li	Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	645
Бобожонов Азимжон Акмал ўғли, Ортиков Нодиржон Хайруллоевич	Нақдсиз ҳисоб-китоблар трансформацияси: ПФ-246-сонли фармоннинг тадбиркорлик муҳитига ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга таъсири (Эмпирик ва институционал таҳлил	653
Norquchqorov Abdulaziz Ziyodulla o‘g‘li	Davlat oliy ta’lim tashkilotlarida smetalar ijrosi hisobining nazariy-institutsional asoslari	662
Толмачева Александра Владимировна	Внутренний контроль качества бухгалтерского учёта при аутсорсинговом обслуживании бизнеса в Узбекистане	672
Газиева Нодира Дилмуротовна	Страховой рынок Узбекистана: динамика, структура и потенциал роста проникновения страхования	678
Misirxonov Xabibxon Iskandar o‘g‘li	Sport-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishda xorijiy tajriba va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari	686
Xusan Xusainov Baratovich	Aholi tadbirkorligini kreditlashni takomillashtirishning yo‘llari	695
Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligini integral ko‘rsatkich asosida kompleks baholash metodikasi	701

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

SUG‘URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI INTEGRAL KO‘RSATKICH ASOSIDA KOMPLEKS BAHOLASH METODIKASI

Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sanjarbekqilichev19@gmail.com
ORCID: 0009-0000-6085-1462

Annotatsiya. Maqolada sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligini kompleks baholash metodikasi ishlab chiqilgan. Metodika kapital yetarliligi, investitsiya portfelining diversifikatsiya darajasi, investitsiya daromadliligi, likvidlilik koeffitsiyenti va sug‘urta majburiyatlarini qoplash darajasini yagona integral investitsion jozibadorlik indeksiga (IJI) birlashtiradi. Ko‘rsatkichlar min-max usulida normallashtiriladi, vaznlar ekspert va entropiya usullarini uyg‘unlashtirib aniqlanadi. Metodika oltita shartli sug‘urtachi misolida sinovdan o‘tkazildi: faqat kapital va qoplash ko‘rsatkichlariga tayangan an’anaviy baholashda birinchi o‘rinni egallagan kompaniya portfel konsentratsiyasi (HHI = 9300) hisobga olinganda “past” jozibadorlik toifasiga tushdi. Metodika investorlar uchun moliyaviy barqarorlik va investitsiya risklari haqida aniqroq axborot shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: investitsion jozibadorlik, integral ko‘rsatkich, kapital yetarliligi, diversifikatsiya, investitsiya daromadliligi, likvidlilik, sug‘urta majburiyatlari, entropiya usuli.

МЕТОДИКА КОМПЛЕКСНОЙ ОЦЕНКИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЛЬНОГО ПОКАЗАТЕЛЯ

Киличев Санжарбек Жавлонбек угли
Независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: sanjarbekqilichev19@gmail.com
ORCID: 0009-0000-6085-1462

Аннотация. В статье разработана методика комплексной оценки инвестиционной привлекательности страховых компаний. Методика объединяет достаточность капитала, уровень диверсификации инвестиционного портфеля, доходность инвестиций, коэффициент ликвидности и степень покрытия страховых обязательств в единый интегральный индекс инвестиционной привлекательности (ИПИ). Показатели нормализуются методом min-max, а весовые коэффициенты определяются путем сочетания экспертного и энтропийного методов. Методика апробирована на примере шести условных страховых компаний: компания, занявшая первое место при традиционной оценке, основанной исключительно на показателях капитала и покрытия, при учете концентрации портфеля (HHI = 9300) перешла в категорию «низкой» инвестиционной привлекательности. Методика позволяет формировать более точную информацию о финансовой устойчивости и инвестиционных рисках для инвесторов.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, интегральный показатель, достаточность капитала, диверсификация, доходность инвестиций, ликвидность, страховые обязательства, энтропийный метод.

A COMPREHENSIVE METHODOLOGY FOR ASSESSING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF INSURANCE COMPANIES BASED ON AN INTEGRAL INDICATOR

Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li
Independent Researcher at
Tashkent State University of Economics
E-mail: sanjarbekqilichev19@gmail.com
ORCID: 0009-0000-6085-1462

Abstract. This article develops a comprehensive methodology for assessing the investment attractiveness of insurance companies. The methodology integrates capital adequacy, the degree of investment portfolio diversification, investment profitability, the liquidity ratio, and the level of coverage of insurance liabilities into a single Integral Investment Attractiveness Index (IIAI). The indicators are normalized using the min-max method, while the weights are determined through a combination of expert and entropy methods. The methodology was tested using six hypothetical insurance companies. Under the traditional assessment based solely on capital and coverage indicators, the company ranked first was classified as having “low” investment attractiveness when portfolio concentration (HHI = 9300) was taken into account. The proposed methodology enables investors to obtain more accurate information regarding financial stability and investment risks.

Keywords: investment attractiveness, integral indicator, capital adequacy, diversification, investment profitability, liquidity, insurance liabilities, entropy method.

Kirish

Sug‘urta kompaniyalari to‘plangan sug‘urta zaxiralarini iqtisodiyotga yo‘naltiruvchi institutsional investorlardir. O‘zbekistonda bu sohaning huquqiy asosi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun [1] bilan belgilangan bo‘lib, sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish bo‘yicha 2024-yildagi qaror [2] zaxiralar va to‘lov qobiliyatini hisoblashni bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga o‘tkazish hamda ustav kapitaliga talablarni oshirishni ko‘zda tutadi.

Bozor hajmi tez o‘smoqda: 2025-yilda sug‘urtachilar soni 36 taga, investitsiyalar hajmi 9,55 trln so‘mga (+46,0%) yetdi, biroq portfelning 63,2 foizi bank depozitlarida joylashgan [3]. Bozor bo‘yicha qisqa muddatli aktivlar ulushi 2024-yilda 67,82 foizni tashkil etgan, ayrim kompaniyalarda esa 90 foizdan oshgan [4]. Bunday sharoitda investor (aksiyador, strategik hamkor yoki sug‘urtalanuvchi) uchun sug‘urtachining haqiqiy investitsion salohiyatini aniqlash murakkablashadi: kapitali yuqori kompaniya bir vaqtning o‘zida portfeli bitta vositada to‘plangan, ya’ni yuqori konsentratsiya riskiga ega bo‘lishi mumkin.

Amaliyotda sug‘urtachilar odatda alohida ko‘rsatkichlar – ustav kapitali, mukofotlar hajmi, to‘lov qobiliyati – bo‘yicha baholanadi. Alohida ko‘rsatkichlar bir-biriga zid signal berganda (masalan, daromadlilik yuqori, ammo majburiyatlarni qoplash past) investor yagona xulosa chiqara olmaydi. **Tadqiqot muammosi** – sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi va investitsiya risklarini bitta taqqoslanadigan ko‘rsatkichda aks ettiruvchi metodikaning mavjud emasligi.

Tadqiqot maqsadi – kapital yetarliligi, portfel diversifikatsiyasi, investitsiya daromadliligi, likvidlilik va sug‘urta majburiyatlarini qoplash darajasini yagona integral ko‘rsatkichga birlashtiruvchi kompleks baholash metodikasini ishlab chiqish va uni sinovdan o‘tkazish. **Farazlar:** *H1* – integral ko‘rsatkich alohida ko‘rsatkichlarga qaraganda sug‘urtachilarni farqlash qobiliyati yuqoriroq bo‘lgan baholashni beradi; *H2* – portfel diversifikatsiyasini hisobga olish faqat kapitalga asoslangan an’anaviy reytingni sezilarli o‘zgartiradi.

Adabiyotlar tahlili

Investitsion jozibadorlikni baholashning nazariy asosi G. Markovitsning portfel nazariyasidir: u daromadlilikni risk va diversifikatsiyadan ajratmasdan baholash zarurligini ko‘rsatgan [5]. Sug‘urtachilar uchun bu yondashuv majburiyatlar bilan bog‘liq holda qo‘llanadi, chunki investitsiya portfeli avvalo sug‘urta tovonlarini to‘lash manbaidir. R. Chen va K. Vong Osiyo sug‘urtachilari misolida kompaniya hajmi, likvidlik, investitsion natija va sug‘urta faoliyati

natijasi moliyaviy holatning asosiy omillari ekanini aniqlagan [6]. Bu omillar maqoladagi ko‘rsatkichlar tanloviga empirik asos bo‘ladi.

Tartibga solish amaliyotida Yevropa Ittifoqining Solvency II direktivasi to‘lov qobiliyatini riskka asoslangan kapital talabi bilan solishtirishni, aktivlarni esa “ehtiyotkor shaxs” tamoyili asosida joylashtirishni talab qiladi [7]. Biroq bu rejim nazorat organiga yo‘naltirilgan va kompaniyalarni investor nuqtayi nazaridan taqqoslovchi yagona indeksni bermaydi. Ko‘p mezonli baholashda vaznlarni obyektiv aniqlash uchun K. Shennonning axborot entropiyasi konsepsiyasiga asoslangan entropiya usuli keng qo‘llanadi [8]: ko‘rsatkich qiymatlari kompaniyalar o‘rtasida qanchalik ko‘p farq qilsa, uning vazni shunchalik katta bo‘ladi.

Mahalliy tadqiqotlarda I. Kenjayev sug‘urtachilar portfelida depozitlar ustunligi va diversifikatsiyaning pastligini [9], E. Abdullayev qisqa muddatli aktivlar ulushining yuqoriligi va risk-moslashtirilgan daromadlilik ko‘rsatkichlarini qo‘llash zarurligini [4], Sh. Shakirova esa sug‘urtachilarning institutsional investor sifatidagi faolligini oshirish mexanizmlarini [3] tahlil qilgan. Muallifning avvalgi ishida investitsion faoliyat samaradorligini oshirishda riskni boshqarish va diversifikatsiya ahamiyati asoslangan [10]. Biroq ushbu tadqiqotlarda ko‘rsatkichlar alohida tahlil qilinib, ularni yagona integral ko‘rsatkichga birlashtiruvchi metodika taklif etilmagan. Maqolaning ilmiy yangiligi shu bo‘shliqni to‘ldirishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli tahlil, ko‘p mezonli qaror qabul qilish (multicriteria) usullari, min-max normallashtirish, entropiya usuli, Xerfindal–Xirshman indeksi (HHI) va Spirmen rang korrelyatsiyasi qo‘llanildi. Metodika besh bosqichdan iborat: (1) ko‘rsatkichlarni hisoblash; (2) normallashtirish; (3) vaznlarni aniqlash; (4) integral indeksni hisoblash; (5) toifalash va natijalar barqarorligini tekshirish.

1-bosqich. Ko‘rsatkichlar tizimi (1-jadval). Kapital yetarliligi (K_1) haqiqiy to‘lov qobiliyati zaxirasining normativ zaxiraga nisbati sifatida; diversifikatsiya darajasi (K_2) HHI orqali; investitsiya daromadliligi (K_3) investitsion daromadning o‘rtacha investitsiyalarga nisbati sifatida; likvidlilik (K_4) yuqori likvid aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati sifatida; qoplash darajasi (K_5) sug‘urta zaxiralarini qoplovchi ruxsat etilgan aktivlarning zaxiralarga nisbati sifatida hisoblanadi.

1-jadval

Integral baholash ko‘rsatkichlari tizimi

Ko‘rsatkich	Hisoblash formulasi	Turi	Mezon
K1 – kapital yetarliligi	To‘lov qobiliyati zaxirasi (haqiqiy) / normativ zaxira	Rag‘batlantiruvchi	≥ 1,0
K2 – diversifikatsiya	$1 - HHI / 10\,000$; $HHI = \Sigma s_i^2$	Rag‘batlantiruvchi	HHI < 2500 – yaxshi
K3 – investitsiya daromadliligi	Investitsion daromad / o‘rtacha investitsiyalar × 100	Rag‘batlantiruvchi	Inflyatsiyadan yuqori
K4 – likvidlilik	Yuqori likvid aktivlar / qisqa muddatli majburiyatlar	Yuqori chegarali (2,0)	1,0–2,0
K5 – majburiyatlarni qoplash	Zaxiralarni qoplovchi aktivlar / sug‘urta zaxiralari	Rag‘batlantiruvchi	≥ 1,0

Manba: muallif ishlanmasi.

K_4 uchun yuqori chegara (2,0) kiritilgani metodikaning muhim jihatidir: ortiqcha likvidlik daromadsiz aktivlarni anglatadi, shuning uchun 2,0 dan yuqori qiymat qo‘shimcha ball bermaydi. $K_1 < 1$ yoki $K_5 < 1$ bo‘lgan kompaniya integral qiymatidan qat’i nazar “kritik” toifaga kiritiladi (veto qoidasi), chunki bunday holatda sug‘urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlar bajarilishi xavf

ostida bo‘ladi.

2-bosqich. Normallashtirish. Ko‘rsatkichlar turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lgani uchun ular [0; 1] oralig‘iga keltiriladi:

$$z_{ij} = (x_{ij} - x_{j,min}) / (x_{j,max} - x_{j,min}) \quad (1)$$

bunda x_{ij} – i-kompaniyaning j-ko‘rsatkichi qiymati.

3-bosqich. Vaznlar. Ekspert vaznlari (w^{eksp}) ko‘rsatkichning moliyaviy barqarorlik uchun ahamiyatiga ko‘ra belgilanadi; muallif tomonidan K1 – 0,25; K2 – 0,20; K3 – 0,20; K4 – 0,15; K5 – 0,20 taklif etiladi. Entropiya vaznlari quyidagicha hisoblanadi:

$$p_{ij} = x_{ij} / \Sigma_i x_{ij}, \quad e_j = -(1 / \ln m) \cdot \Sigma_i p_{ij} \cdot \ln p_{ij} \quad (2)$$

$$w_j^{ent} = (1 - e_j) / \Sigma_j (1 - e_j) \quad (3)$$

bunda m – kompaniyalar soni. Ekspert baholashining subyektivligini va entropiya usulining ma’lumotlarga haddan tashqari bog‘liqligini muvozanatlash uchun kombinatsiyalangan vazn qo‘llanadi:

$$w_j = 0{,}5 \cdot w_j^{eksp} + 0{,}5 \cdot w_j^{ent} \quad (4)$$

4-bosqich. Integral indeks:

$$IJI_i = \Sigma_j w_j \cdot z_{ij}, \quad 0 \le IJI_i \le 1 \quad (5)$$

5-bosqich. Toifalash: IJI ≥ 0,70 – yuqori; 0,50–0,69 – o‘rtacha; 0,30–0,49 – past; IJI < 0,30 yoki veto qoidasi – kritik jozibadorlik. Natijalar barqarorligi uchta vazn varianti bo‘yicha olingan reytinglar o‘rtasidagi Spirmen koeffitsiyenti bilan tekshiriladi.

Ma’lumotlar. Kompaniyalar kesimida K1–K5 ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun zarur bo‘lgan to‘liq ma’lumotlar ochiq manbalarda e’lon qilinmaganligi sababli metodika oltita shartli sug‘urtachi (S1–S6) ma’lumotlarida sinovdan o‘tkazildi (2-jadval). Qiymatlar real kompaniyalarni ifodalamaydi; ular bozorning agregat ko‘rsatkichlari va adabiyotdagi ma’lumotlarga mos diapazonlarda tanlangan. Masalan, bozor bo‘yicha 2025-yilgi portfel tuzilmasi uchun HHI 4514 ni tashkil etadi [3] ($K_2 \approx 0{,}55$), ayrim kompaniyalarda esa qisqa muddatli aktivlar ulushi 97 foizgacha yetadi [4], bu juda yuqori konsentratsiyaga mos keladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

2-jadval

Shartli sug‘urtachilar bo‘yicha boshlang‘ich ko‘rsatkichlar

Kompaniya	K1	K2 (HHI)	K3, %	K4	K5
S1	1,85	0,58 (4200)	14,2	1,6	1,12
S2	1,20	0,32 (6800)	16,8	2,4 → 2,0	1,03
S3	2,60	0,65 (3500)	12,5	1,3	1,25
S4	1,05	0,11 (8900)	18,1	3,2 → 2,0	0,96
S5	1,45	0,50 (5000)	15,0	1,1	1,08
S6	3,10	0,07 (9300)	13,0	2,8 → 2,0	1,30

Izoh: “→ 2,0” – yuqori chegara qo‘llanganini bildiradi. Manba: muallif tomonidan metodikani sinash uchun tuzilgan shartli ma’lumotlar.

Boshlang‘ich ma’lumotlar alohida ko‘rsatkichlar bir-biriga zid signal berishini ko‘rsatadi. S4 eng yuqori daromadlilikka (18,1%) ega, ammo kapital yetarliligi normativga yaqin (1,05), majburiyatlarni qoplash esa normativdan past (0,96). S6 eng yuqori kapital (3,10) va qoplash (1,30) ko‘rsatkichiga ega, biroq uning portfeli deyarli bitta vositada to‘plangan (HHI = 9300). Bunday holatda alohida ko‘rsatkichlar asosida qaror qabul qilish qiyin, bu esa integral yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

(2)–(4) formulalar asosida hisoblangan vaznlar 3-jadvalda keltirilgan. Entropiya qiymatlari K2 uchun eng past (0,882), K5 va K3 uchun eng yuqori (0,997 va 0,995) bo‘ldi. Demak, shartli kompaniyalarni eng ko‘p farqlaydigan ko‘rsatkich – diversifikatsiya darajasi, daromadlilik va qoplash darajasi esa kompaniyalar o‘rtasida nisbatan kam farq qiladi. Shu sababli sof entropiya

vazni K2 ga 0,645, K5 ga esa atigi 0,017 vazn beradi. Bu ko‘rsatkichning iqtisodiy ahamiyatini to‘liq aks ettirmaydi, shuning uchun kombinatsiyalangan vazn qo‘llandi.

3-jadval

Ko‘rsatkichlar vaznlari

Vazn turi	K1	K2	K3	K4	K5
Entropiya qiymati, e_j	0,957	0,882	0,995	0,986	0,997
Ekspert vazni	0,250	0,200	0,200	0,150	0,200
Entropiya vazni	0,235	0,645	0,027	0,076	0,017
Kombinatsiyalangan vazn, w	0,243	0,423	0,113	0,113	0,108

Manba: muallif hisob-kitoblari.


Integral indeks natijalari 4-jadval va 1-rasmda keltirilgan. Kombinatsiyalangan vaznlar bo‘yicha S3 “yuqori” (0,724), S1 “o‘rtacha” (0,614), S6, S5 va S2 “past” (0,474; 0,450; 0,422), S4 esa “kritik” (0,255) toifaga kirdi. S4 uchun veto qoidasi ham ishga tushadi ($K_5 = 0,96 < 1$).

4-jadval.

Integral investitsion jozibadorlik indeksi va reytinglar

Kompaniya	IJI (ekspert)	IJI (entropiya)	IJI (kombinats.)	Reyting*	Toifa
S1	0,512	0,717	0,614	3 / 2 / 2	O‘rtacha
S2	0,449	0,395	0,422	4 / 4 / 5	Past
S3	0,593	0,854	0,724	2 / 1 / 1	Yuqori
S4	0,364	0,147	0,255	5 / 6 / 6	Kritik
S5	0,357	0,542	0,450	6 / 3 / 4	Past
S6	0,618	0,331	0,474	1 / 5 / 3	Past

**Ekspert / entropiya / kombinatsiyalangan vaznlar bo‘yicha o‘rin. Toifa kombinatsiyalangan IJI va veto qoidasi asosida. Manba: muallif hisob-kitoblari.*



1-rasm. Integral indeks tarkibi: ko‘rsatkichlarning hissasi (kombinatsiyalangan vaznlar)

Manba: 2–3-jadvallar ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalardan uchta muhim xulosa kelib chiqadi. *Birinchidan*, S6 holati metodikaning asosiy afzalligini ko‘rsatadi: kapital va qoplashga katta vazn beradigan ekspert variantida u birinchi

o‘rinni egallaydi (0,618). Diversifikatsiya va likvidlikni obyektiv hisobga olganda esa uchinchi o‘ringa tushib, “past” toifaga kiradi. Demak, yuqori kapital portfel konsentratsiyasi riskini yashiradi va an’anaviy baholash investorni chalg‘itishi mumkin. Bu natija *H2* farazini tasdiqlaydi va Markovits nazariyasidagi diversifikatsiya tamoyiliga mos keladi [5]. *Ikkinchidan*, S4 misolida eng yuqori daromadlilik jozibadorlikni ta’minlamasligi ko‘rindi: past kapital va majburiyatlarning to‘liq qoplanmaganligi uni oxirgi o‘ringa tushiradi. *Uchinchidan*, 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, IJI tarkibini ko‘rsatkichlar bo‘yicha ajratish har bir kompaniyaning kuchsiz bo‘g‘inini aniqlash imkonini beradi: S2 uchun – kapital, S6 uchun – diversifikatsiya, S5 uchun – likvidlik. Bu natija *H1* farazini qo‘llab-quvvatlaydi.

Natijalar barqarorligi tekshiruvi shuni ko‘rsatdiki, ekspert va entropiya vaznlari bo‘yicha reytinglar o‘rtasidagi Spirmen koeffitsiyenti atigi 0,20 ga teng. Demak, vazn tanlovi natijaga kuchli ta’sir qiladi. Kombinatsiyalangan variant bilan bu koeffitsiyent mos ravishda 0,66 va 0,83 ni tashkil etdi, ya’ni kombinatsiyalangan vazn ikkala yondashuvning ma’lumotlarini muvozanatli birlashtiradi. Shuning uchun amaliyotda IJI kombinatsiyalangan vazn bilan hisoblanishi va ekspert hamda entropiya variantlari sezgirlik tahlili sifatida birga e’lon qilinishi tavsiya etiladi.

Metodikaning cheklovlari ham mavjud: min-max normallashtirish natijalari tanlanmadagi kompaniyalar tarkibiga bog‘liq. Shu sababli kompaniyalarni turli yillar bo‘yicha taqqoslashda mezonlar (masalan, K1 uchun 1,0 va 3,0) qat’iy belgilangan normativ chegaralar asosida normallashtirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, sinov shartli ma’lumotlarda o‘tkazildi; metodikani real kompaniyalar hisobotlari asosida qo‘llash keyingi tadqiqot vazifasidir.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijasida sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligini kompleks baholash metodikasi ishlab chiqildi. U kapital yetarliligi, investitsiya portfelining diversifikatsiya darajasi, investitsiya daromadliligi, likvidlilik koeffitsiyenti va sug‘urta majburiyatlarini qoplash darajasini yagona integral ko‘rsatkichga (IJI) birlashtiradi. Metodikaning yangiligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: diversifikatsiyani HHI orqali miqdoriy baholash; likvidlik uchun yuqori chegara va kapital hamda qoplash bo‘yicha veto qoidasini kiritish; ekspert va entropiya vaznlarini uyg‘unlashtirish. Shartli ma’lumotlardagi sinov metodika an’anaviy baholashda yashiringan konsentratsiya riskini aniqlashini va har bir kompaniyaning kuchsiz bo‘g‘inini ko‘rsatishini isbotladi. Natijada investorlar moliyaviy barqarorlik va investitsiya risklari to‘g‘risida aniqroq axborot oladi.

Amaliy takliflar:

1) Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan sug‘urtachilar reytingi tizimiga IJI metodikasini qo‘shimcha ko‘rsatkich sifatida kiritish va natijalarni har yili e’lon qilish;

2) sug‘urtachilar uchun investitsiya portfeli tuzilmasi, muddatlari va daromadliligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kompaniyalar kesimida choraklik ochiqlashni majburiy qilish – bu IJI ni real ma’lumotlarda hisoblash imkonini beradi;

3) to‘lov qobiliyatini hisoblashni xalqaro standartlarga o‘tkazish jarayonida [2] portfel konsentratsiyasi uchun alohida kapital talabini (HHI chegarasi) belgilash;

4) sug‘urta kompaniyalarida investitsiya siyosatini IJI ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash: diversifikatsiya va likvidlik bo‘yicha ichki maqsadli qiymatlarni belgilash va ularni direktorlar kengashi darajasida monitoring qilish.

Keyingi tadqiqotlarda metodikani O‘zbekiston sug‘urtachilarining moliyaviy hisobotlari asosida panel ma’lumotlarda qo‘llash va IJI bilan kompaniyalarning bozor qiymati o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-730-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi “Sug‘urta xizmatlari

bozorini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-108-son Qarori.

3. Shakirova Sh.I. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta kompaniyalarining institutsional investorlar sifatidagi faoliyatini rivojlantirish va faolligini oshirish mexanizmlari // Moliya va bank ishi jurnali (maxsus son). – 2026. – B. 87–90.

4. Abdullayev E.A. Sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatini tartibga solishda moliyaviy mexanizmlarning roli: nazariya va O‘zbekiston amaliyoti // O‘zbekiston sug‘urta bozori. – 2025. – T. 2. – №5. – B. 4–7.

5. Markowitz H. Portfolio Selection // The Journal of Finance. – 1952. – Vol. 7. – №1. – P. 77–91.

6. Chen R., Wong K.A. The Determinants of Financial Health of Asian Insurance Companies // The Journal of Risk and Insurance. – 2004. – Vol. 71. – №3. – P. 469–499.

7. Directive 2009/138/EC of the European Parliament and of the Council of 25 November 2009 on the taking-up and pursuit of the business of Insurance and Reinsurance (Solvency II).

8. Shannon C.E. A Mathematical Theory of Communication // The Bell System Technical Journal. – 1948. – Vol. 27. – №3. – P. 379–423.

9. Kenjayev I.G‘. Mamlakat ichki investitsion imkoniyatlarini kengaytirishda sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatining rolini oshirish masalalari // O‘zbekiston sug‘urta bozori. – 2026. – T. 3. – №1. – B. 11–14.

Foydalanilgan veb-saytlar ro‘yxati:

– www.napp.uz – O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (sug‘urta bozori ochiq ma’lumotlari).

– www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.